

Ilmiy to'garak: "Yosh infeksiyachil" "Yosh epidemiolog"

Farg'ona Jamoat Salomatligi Tibbiyot Instituti **"Epidemiologiya va yuqumli kasalliklar, hamshiralik ishi"** kafedrasida talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyati **"Yosh infeksiyachil"** hamda **"Yosh epidemiolog"** nomli talabalar ilmiy to'garaklari orqali tizimli ravishda yo'lga qo'yilgan. Ushbu to'garaklar faoliyati zamonaviy epidemiologiya va yuqumli kasalliklar sohasidagi dolzarb muammolarni chuqur o'rganish, talabalarni ilmiy izlanishlarga jalb etish hamda ularning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan. To'garak mashg'ulotlari doirasida talabalar yuqumli kasalliklarning etiologiyasi, epidemiologiyasi, patogenezini, klinik kechishi, diagnostikasi, davolash va profilaktikasi bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borib, respublika hamda xalqaro miqyosda o'tkazilayotgan ilmiy-amaliy konferensiyalar, olimpiadalar va tanlovlarda faol ishtirok etib kelmoqdalar. To'garaklar faoliyati epidemiologiya, infeksiyachil kasalliklar va hamshiralik ishi yo'nalishlariga qiziquvchi barcha talabalarni qamrab olgan.

To'garaklar faoliyatining asosiy yo'nalishlari:

yuqumli kasalliklar tarqalishining epidemiologik qonuniyatlarini o'rganish;

zamonaviy infeksiyachil kasalliklar diagnostikasi va davolash yondashuvlarini tahlil qilish;

epidemiologik monitoring, statistik tahlil va ilmiy ma'lumotlar bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirish;

ilmiy maqola, tezis va prezentatsiyalar tayyorlash bo'yicha amaliy tajriba orttirish.

Yosh infeksiyachil To'garak rahbari: Qodirova Gulira'no Abduxapiz qizi —kafedrada o'zbek va ingliz tilida talabalarga dars o'tib,yuqumli kasalliklar fanidan zamonaviy davolash standartlari bo'yicha bilim berib kelmoqda.bir qancha shogirdlari hozirga qadar o'tkazilgan xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiyalar hamda olimpiadalarda faol ishtirok etib, ijobiy natijalarga erishib kelmoqdalar. Bundan tashqari, kafedra talabalar ilmiy jamiyati a'zolari ilmiy rahbarlari bilan hammualliflikda respublika va xalqaro **OAK ro'yxatidagi ilmiy jurnallarda** 20 dan ortiq ilmiy maqolalar 30dan ortiq tezislarni chop ettirib kelmoqdalar. 1ta o'quv qo'llanma muallifi.

To'garak sardori:G'anijonov Xumoyun — 6-kurs "Davolash ishi" fakulteti talabasi, 10 dan ortiq ilmiy maqola va tezislarni muallifi hamda hammuallifi, "Rektor stipendiyasi" sohibi va O'zbekiston Respublikasi vrachlar assotsiatsiya stipendiyasi sohibi



Yosh epidemiolog To‘garak rahbari: Axmedov Avazbek Aliyevich—Epidemiologiya va yuqumli kasalliklar, hamshiralik ishi kafedrası assistenti. Ko‘plab respublika va xalqaro ilmiy konferensiyalarda ishtirok etgan. Bundan tashqari, kafedra talabalar ilmiy jamiyati a‘zolari ilmiy rahbarlari bilan hammualliflikda respublika va xalqaro **OAK ro‘yxatidagi ilmiy jurnallarda** 10 dan ortiq ilmiy maqolalar 10dan ortiq tezislar chop ettirib kelmoqdalar. 2ta o‘quv qo‘llanma muallifi

To‘garak sardori: **Mullajonov Farrux** — 6-kurs “Davolash ishi” fakulteti talabasi, 10 dan ortiq ilmiy maqola va tezislar muallifi hamda hammuallifi
To‘garak a‘zolari soni:

Bugungi kunda **“Yosh infeksiyachilar”** va **“Yosh epidemiolog”** ilmiy to‘garaklarida **40 nafardan ortiq talaba** faol ishtirok etmoqda. Har bir talaba kafedra professor-o‘qituvchilari va assistentlariga biriktirilgan bo‘lib, ular o‘rtasida **“ustoz–shogird”** tamoyili asosida samarali ilmiy hamkorlik yo‘lga qo‘yilgan. Kafedra yig‘ilishlari davomida talabalar ilmiy ish mavzularini tanlash, tadqiqot metodologiyasini ishlab chiqish, birlamchi hujjatlarni rasmiylashtirish hamda ilmiy hisobot yuritish bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarni egallab bormoqdalar. Shuningdek, talabalarning nutq madaniyati va oratorlik mahoratini oshirish maqsadida ularning ilmiy ishlari asosida prezentatsiyalar tashkil etilib, tahliliy muhokamalar o‘tkazilmoqda.

Kafedra mudiri va mas‘ul professor-o‘qituvchilar tomonidan iqtidorli talabalarga individual ilmiy mavzular biriktirilgan bo‘lib, talabalar tomonidan tezislar, ilmiy maqolalar va hisobotlar muntazam tayyorlab borilmoqda. To‘garak a‘zolari hozirga qadar o‘tkazilgan xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiyalar hamda olimpiadalarda faol ishtirok etib, ijobiy natijalarga erishib kelmoqdalar. Bundan tashqari, kafedra talabalar ilmiy jamiyati a‘zolari ilmiy rahbarlari bilan hammualliflikda respublika va xalqaro **OAK ro‘yxatidagi ilmiy jurnallarda** ilmiy maqolalar chop ettirib kelmoqdalar.

Ilmiy to‘garak: “Zukko hamshira”

Farg‘ona Jamoat Salomatligi Tibbiyot Instituti “Epidemiologiya va yuqumli kasalliklar” kafedrasida talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyati **“Zukko hamshira”** nomli talabalar ilmiy to‘garagi orqali yo‘lga qo‘yilgan. To‘garak faoliyati Farg‘ona Jamoat Salomatligi Tibbiyot institutida bo‘lib o‘tgan xalqaro va respublika miqyosidagi talabalar ilmiy-amaliy konferensiyalari doirasida alohida yig‘ilishlar tashkil etish orqali amalga oshirilmoqda. Unda talabalar hamshiralik sohasidagi **dolzarb muammolar hamda zamonaviy tibbiyot yondashuvlari** bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlarini tayyorlab, respublika tanlovlarida faol ishtirok etib kelishmoqda. To‘garak faoliyati oliy hamshiralik ishi yo‘nalishlariga qiziquvchi barcha talabalarni o‘z ichiga oladi. A‘zolar o‘z yutuqlari bilan rag‘batlantirilib, kafedra bilan hamkorlikda faol ilmiy muhitda ishlashmoqda.

To'garak rahbari:

Irgasheva Maxbuba Davlatovna — Epidemiologiya va yuqumli kasalliklar, hamshiralik ishi kafedrası assistenti. Ko'plab respublika va xalqaro ilmiy konferensiyalarda ishtirok etgan.

To'garak sardori:

Ortiqboyeva Dilshoda Ulug'bek qizi — 3-kurs “Oliy hamshiralik ishi” fakulteti talabasi, 10 dan ortiq ilmiy maqola va tezislari muallifi va hammuallifi, “Rektor stipendiyasi” sohibasi.



To'garak a'zolari soni:

Bugungi kunda **“Zukko hamshira”** ilmiy to'garagida **10 dan ortiq talaba** faol ishtirok etmoqda. Har bir talaba kafedra assistentlariga birlashtirilgan bo'lib, ular o'rtasida **“ustoz-shogird” an'analari** muvaffaqiyatli shakllantirilgan. Kafedra yig'ilishlarida talabalar ilmiy ish mavzularini tanlash, tadqiqot metodikasini o'rganish, birlamchi hujjatlarni rasmiylashtirish va ilmiy hisobot yuritish bo'yicha amaliy ko'nikmalarni egallab bormoqdalar. Shuningdek, talabalarning **oratorlik mahoratini rivojlantirish** maqsadida o'z ilmiy ishlari bo'yicha prezentatsiyalar tashkil etilib, ularning tahlili o'tkazilmoqda. Kafedra mudiri va mas'ul o'qituvchilar tomonidan institut iqtidorli talabalariga birlashtirilgan ilmiy mavzular shakllantirilgan

bo‘lib, talabalar tezislar, maqolalar hamda ilmiy hisobotlar tayyorlab borishmoqda. To‘garak a‘zolari hozirgacha o‘tkazilgan **xalqaro va respublika olimpiadalari hamda konferensiyalarda** faol ishtirok etib, ijobiy natijalar ko‘rsatib kelishmoqda. To‘garak a‘zolari ilmiy rahbarlari bilan hammualliflikda maqolalar chop etib kelmoqdalar.

Ilmiy to‘garak: “Jonkuyar hamshira”

Farg‘ona Jamoat Salomatligi Tibbiyot Instituti “Epidemiologiya va yuqumli kasalliklar, hamshiralik ishi” kafedrasida talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyati **“Jonkuyar hamshira”** nomli talabalar ilmiy to‘garagi yo‘lga qo‘yilgan. To‘garak faoliyati Farg‘ona Jamoat Salomatligi Tibbiyot Institutida bo‘lib o‘tadigan xalqaro va respublika miqyosidagi talabalar ilmiy-amaliy konferensiyalari doirasidagi yig‘ilishlarda, to‘garak mashg‘ulotlarida faol ishtirok etish orqali amalga oshirilmoqda. To‘garak faoliyati Oliy hamshiralik ishi yo‘nalishiga qiziquvchi barcha talabalarni o‘z ichiga oladi. A‘zolar o‘z yutuqlari bilan rag‘batlantirilib, kafedra bilan hamkorlikda faol ilmiy muhitda ishlashmoqda.

To‘garak rahbari:

Egamberdiyeva Gulnora Nematovna — Epidemiologiya va yuqumli kasalliklar, hamshiralik ishi kafedrasida katta o‘qituvchisi, Pediatriyada hamshiralik ishi fani o‘qituvchisi, 20 dan ortiq ilmiy maqolalar muallifi, 3 ta o‘quv qo‘llanma, 1 ta monografiya muallifi.

To‘garak sardori:

Haydarova Surayyo — “Tibbiy profilaktika ishi va jamoat salomatligi” fakulteti OHI yo‘nalishi, 3-kurs talabasi, 4 dan ortiq ilmiy maqola va tezislar muallifi va hammuallifi.



To'garak a'zolari soni:

Bugungi kunda **“Jonkuyar hamshira”** to'garagida 8 ta talaba faol ishtirok etmoqda. Har bir talaba kafedra assistentlariga biriktirilgan bo'lib, ular o'rtasida “Ustoz-shogird” an'analari muvaffaqiyatli shakllantirilgan. Kafedra yig'ilishlarida talabalar ilmiy ish mavzularini tanlash, tadqiqot metodikasini o'rganish, birlamchi hujjatlarni rasmiylashtirish va ilmiy hisobot yuritish bo'yicha amaliy ko'nikmalarni egallab bormoqdalar. Shuningdek, talabalarning oratorlik mahoratini rivojlantirish maqsadida o'z ilmiy ishlari bo'yicha prezentatsiyalar tashkil etilib, ularning tahlili o'tkazilmoqda. Kafedra mudiri va mas'ul o'qituvchilar tomonidan institut iqtidorli talabalariga biriktirilgan ilmiy mavzular shakllantirilgan bo'lib, talabalar tezislar, maqolalar hamda ilmiy hisobotlar tayyorlab borishmoqda. To'garak a'zolari hozirgacha o'tkazilgan xalqaro va respublika olimpiadalari hamda konferensiyalarda faol ishtirok etib, ijobiy natijalar ko'rsatib kelishmoqda. Bundan tashqari, Farg'ona Jamoat Salomatligi Tibbiyot Instituti **“Jonkuyar hamshira”** kafedrası TIJ a'zolari xalqaro va respublika OAK ro'yxatidagi ilmiy jurnallarda ilmiy rahbarlari bilan hammualliflikda maqolalar chop etib kelmoqdalar.